

TARBIYA BIZ UCHUN YO HAYOT – YO MAMOT...

Ushbu maqola xalq ta'limi tizimida psixologiya fanini dars soatlari tarkibiga kiritish dolzabligi masalasiga asoslanib yozildi.

*Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot –
yo halokat, yo saodat –yo falokat masalasidir.*

Abdulla Avloniy

Sardorbekning kundan-kunga davomati tushib, o'zlashtirishi ham pasayib qoldi. Imtihonlarga tayyorlanayotgan o'quvchiga hech o'xshamaydi. Tashqi ko'rinishiga ham e'tibor bermay qo'ydi. Bir muammodan tashvishda ekanligi sezilib turibdi. Kecha darsdan keyin o'tkazilgan psixologik treningda ham umuman faol bo'lmadi. O'quv yili avvalida deyarli har kuni suhbatlashish uchun xonaga kirib turar edi. U paytlari oilaviy masala bo'yicha murojaat qilgan edi. Suhbatlashib, maslahat-tavsiyalar berib, hayotiy misollar bilan yo'l-yo'riq ko'rsatib turgan edim. Keyinchalik uning ruhiy holati yaxshilanib, sinfdoshlariga qo'shilib qolgan edi.

Hozir birinchi o'rinda Sardorbek masalasida shug'ullanishim kerak.

Suhbatlashishim kerak bo'lgan 9-sinfda o'qiydigan Bibisora ham bor. Shanba kuni shaxsiy kundaligini o'qib chiqishim uchun xonamda qoldirib chiqib ketgandi. So'nggi paytlarda yozgan kechinmalari yakunida o'rgimchak to'rini chizishni boshlabdi. Bu narsaga jiddiy qarash zarur.

Shu kabi ruhiy holatdagi o'quvchilar bilan doimiy aniq tartibda

psixoprofilaktik ishlarni olib borib, psixokorreksion yoʻnaltirishim uchun psixologiya fanini dars jadvaliga kiritishni qattiq iltimos qilib, vazirlikka xat bilan chiqmasam boʻlmaydiganga oʻxshaydi. Avvalgi takliflarim kabi taklifligicha jadvalda qolib ketmasidan turib harakatni boshlashim kerak. Chunki ertaga oʻquvchilar mustaqil hayotga qadam qoʻyganlarida hayot imtihonlaridan oʻtishlari kerak boʻladi. Puxta bilim egallagan oʻquvchi imtihonlarda yaxshi koʻrsatkichlarga erishgani kabi real hayot imtihonlariga ham tayyorlash zarur oʻquvchilarni. Hayot baland-pastliklarida matonat bilan qadam tashlash, muammolarga yuzma-yuz tura olish, masʼuliyatni his qilish va boshqa koʻplab imtihonlardan oʻtish uchun ham psixologik bilimlar zarur. Oʻquvchilarning dars soatlari yakunlanishini kutib, ruhan va jismonan toliqqan oʻquvchilar bilan ishlashni rejalashtirgandan koʻra, psixologiya fanini dars soatlari qatoriga kiritib, kunning birinchi yarmida maktabda kafolatlangan dars soatlarini tashkil etish zarur. Psixologiya fanidan ham kafolatlangan dars soatlari joriy etilsa, oʻquvchi ertaga hech boʻlmaganda masʼuliyat, iroda, tartib, qadriyat, hurmat degan tushunchalarni oʻziga xos ijobiy tarzda singdiradi va hayot yoʻlida joriy eta oladi. Salbiy holatlar, muammolar yuzaga kelsa aybdorlarni qidirib qolmaslik uchun ham ishlarni kechiktirmay tashkil etish zarur. Aks holda shaxslararo munosabatlarda, jinsiy tarbiya masalalarida, kasb-hunar tanlashda, nikoh oldi omillarini anglab olishda, oila qurish va farzand tarbiyasida misli koʻrilmagan boʻshliqlar yuzaga kelib qolishi mumkin.

Akbarov Mahmudjon Maksudovich

**Fargʻona viloyati Erkin Vohidov
nomidagi ijod maktabi psixologi**

uz.far.max@gmail.com